

## ERKIN VOHIDOV IJODINI O'QITISH USULLARI

**Muhammadova Maftuna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va  
adabiyoti fakulteti talabasi

**Gulzina Tulishova**

Ilmiy rahbar:

### ANNOTATSIYA

Erkin Vohidov ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, adib asarlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning o'rni hamda ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, lirika, usul, o'qitish, o'qituvchi, vosita, metod, didaktik.

### ABSTRACT

The ideological and artistic characteristics of Erkin Vahidov's work, the role and importance of pedagogical technologies in teaching literary works are analyzed.

**Keywords:** Pedagogical technology, lyrics, method, teaching, teacher, tool, method, didactic.

### АННОТАЦИЯ

Анализируются идеино-художественные особенности творчества Эркина Вахидова, роль и значение педагогических технологий в обучении литературным произведениям.

**Ключевые слова:** Педагогическая технология, лирика, метод, обучение, учитель, инструмент, метод, дидактика.

### KIRISH

O'qitish fan, uning bo'limlari va bo'limlarning mavzularini izchil hamda didaktik talablar asosida rejalashtirishni talab etadi. Shuningdek, o'qituvchi materialni qismlarga bo'lib o'qitishda ushbu qismlarning oson va ongli o'zlashtirilishiga imkoniyat beradigan didaktik vositalar, amalga oshiriladigan texnologiyalar, samarali metodlar turlari, amalga oshirish yo'sinlarini ham loyihalashtirishi lozim. Ikkinci tomondan, o'quv materiallari, mavzulari o'zlari aloqador bo'lgan fanning eng so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi zarur. O'z-o'zidan tushuniladiki, fanning yangi mazmuni o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashishlarni, rejalashtirishlarni,

innovatsiyalarni talab etadi, bularning barchasi o‘qitish modulining dolzarbligini belgilaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashib borishi dars berish jarayonida qo‘llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarni turli yo‘nalish va maqsadlarda qo‘llanilayotganligiga bog‘liq.

Bugun ta’lim tizimida hayotga tadbiq etilayotgan islohatlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo‘lib yetishmog‘iga qaratilgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Bugungi kun o‘qituvchisi yangilikka intiluvchan, uni to‘g‘ri qabul qilib o‘z o‘quvchisiga yuksak darajada yetkaza olish zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o‘tkazish uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo‘lishi zarur. Shundagina bunday o‘qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi va unda eng oliy insoniy fazilatlarga ega yosh avlod buyuk kelajagimiz egalari hisoblanadi.

Erkin Vohidov yaratgan “Donishqishloq latifalari” va bu turkumning bosh qahramoni Matmusa misolida she’riyat muxlislari yana bir bor badiiy ijodda baribir mahorat birlamchi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Erkin Vohidov o‘zidagi mahorat kuchi bilan uncha-muncha nigohlar ilg‘amaydigan komik vaziyatlarni kashf etadi, uni mohirona hajviy yo‘sinda talqin etadi, kuldiradi va o‘ylatadi. Shoir hajviyotining gultoji bo‘lmish “Donishqishloq latifalari”ni o‘qimagan, undan yod olib davralarda odamlarga xursandchilik ulashish uchun aytib yurmagan insonlar bo‘lmasa kerak.

Biz o‘quvchilarga ushbu asarni o‘qitish jarayonida quyidagi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashimiz mumkin.

### **NATIJALAR**

“Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish”. Tushunchalar asosida matn tuzish metodi bilish - izlanish turidagi mustaqil ishlar sirasiga kirib, bu ish turli xil mantiqiy amallarni talab etadi: tahlil qilish va umumlashtirish, dalil va hodisalarni qiyoslash, ulardagi mushtaraklik va farqli tomonlarni aniqlash, asosiy va ikkinchi darajali belgilarni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini ochib berish va hokazo. Odatda talabalar noma’lum hodisalar, yangi materiallarga duch keladilar, yangi bilimlarni egallah va o‘quv muammosini hal qilish yo‘llarini izlab topishni talab etadigan muammoli vaziyat paydo bo‘ladi.

Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish ayniqsa, adabiyot darslarining amaliy va seminar darslarida katta samara beradi. Masalan, “Donishqishloq latifalari” asarida hajviy obrazning o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirishda quyidagicha foydalanish mumkin.

1. Donishqishloq, latifa, Matmusa, hajviy qahramon, ko‘ngil, obraz, ijtimoiy-siyosiy, Matmusaning dutori, peyzaj.
2. Matmusaning tandiri, komizm, kulgi, humor, satira, diolog, personaj, sujet, Matmusaning qishlog‘i, komik qahramon, komik konflikt.
3. Matmusaning lagani, Matmusaning charxpalagi, Qiziquvchan Matmusa, Matmusaning qalpog‘i, Matmusaning uylanishi, Matmusa rassom.

Tushunchalar tahlili asosida matn tuzish individual yoki kichik guruhlarda amalgam shirilishi mumkin. Matn tuzish auditoriyada yoki uyda bajarish uchun mustaqil ish sifatida beriladi. Auditoriyada matn tuzish uchun o‘qituvchi tomonidan 15-20 minut beriladi. Vaqt tugagandan so‘ng har bir guruh o‘z tuzgan matnini o‘qib beradi. Matn yuzasidan savol-javoblar bo‘ladi. Yuqorida berilgan beshta topshiriq bo‘yicha tuzilgan ilmiy matndan talabarning mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligining guvohi bo‘lamiz.

### MUHOKAMA

Bugungi kunda millatdoshlarimizning har biri Matmusaning ajib hangomalaridan xabardor. Donishqishloqlarining ajabtovur fe’l-atvorlari barchani qoyil qoldiradi. Qishloqning nomi ham ahliga mos-Donishlar qishlog‘i. Ular atrof-olamni o‘zlaricha qabul qiladilar. Mushohadalari-yu mulohazalari, xulosalari-yu to‘xtamlari ham boshqalarnikidan farq qiladi.

“Donishqishloq latifalari” turkumiga bir-biridan alohida, bir-biriga bog‘lanmaydigan o‘nta she’riy hangoma kirgan. Demak, bu turkum uchun yaxlit sujet yo‘q. Ammo bu o‘nta alohida hangomani bir-biriga bog‘lab turuvchi obraz borki, bu Matmusa va donishqishloqliliklardir. O‘nta hangomaning asosiy qahramoni esa Matmusa hisoblanadi.

Shuningdek, mazkur asarni “Klaster” metodi asosida quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Matmusaning dutori

Matmusaning tandiri

Matmusaning qishlog‘i

Tandir kiygan

Matmusaning lagani

“Donishqishloq latifalari”

Matmusa

Matmusaning charxpalagi

rassom

Qiziquvchan Matmusa

Matmusaning uylanishi

Matmusaning qalpog‘i

Ko‘rib turganimizdek, Matmusa hangomalarimizning sarlavhasiga ko‘tarilgan. Klaster metodi orqali biz har bir Matmusa bilan bog‘liq hangomaning sarlavhasi keltirilishi orqali alohida sujetning umumiyligini mazmunini yaqqol tasavvur qilish imkoniga ega bo‘lamiz.

O‘n minutlik esse. Esse – bu muallifning individual nuqtai nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiyligini yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

O‘n minutlik esseni yozish qoidalari (“Matmusa obrazining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari” mavzusida):

1. Taklif etilgan mavzuga doir so‘zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo‘lishi mumkin.

2. Matmusaning lagani, Matmusaning charxpalagi, Qiziquvchan Matmusa, Matmusaning qalpog‘i, Matmusaning uylanishi, Matmusa rassom kabi jumlalardan foydalaning.

3. O‘zingiz o‘qigan Matmusaning hangomalaridan birini tahlil qiling.

O‘n minutlik esse talabaning ijodiy qibiliyatini, yozma savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega texnologiyalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish talabalarning mantiqiy, tanqidiy, mustaqil fikrlesh qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. Mazkur metodlar tarbiyaviy xarakterdagi bir qator vaziyatlarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o‘zining faoliyatiga mas’ullik va qiziqish uyg‘otadi;
- o‘zgalarni tinglash va fikriga hurmat;
- muammoga ijodiy yondoshish;
- imkoniyatlarni ko‘rsata olish;
- jamoa bilan ishslash mahorati.

## XULOSA

Ta’lim sifatini yaxshilash, talabalarning intellektual faolligini oshirish bugungi kunda pedagogikaning bosh vazifasi hisoblanadi. Intellektual faollikni oshirishda interaktiv usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu esa ta’lim jarayonida yangiliklarni joriy etishni talab etadi.